Ernazarova Laylo Abdusaitovna

Samarqand davlat pedagogika instituti

“Boshlang‘ich va maktabgacha ta’lim nazariyasi” kafedrasi o‘qituvchisi

Amirova Mohichehra Abdunabiyevna

Samarqand davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteti Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SO‘Z YASALISHI VA SO‘Z TURKUMLARINI O‘RGANISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Boshlang‘ich sinfda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘rganish metodikasi, ularni o‘rgatishga doir metodik tavsiyalar haqida so‘z boradi. O‘quvchilarda morfemik tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirish, so‘z yasovchi qo‘shimchalarning funksiyalarini o‘rgatish va so‘z turkumlarini mustaqil ajrata olishga doir metodik tavsiyalar haqida so‘z boradi. So‘z yasalishi va so‘z turkumini o‘rgatish orqali kichik yoshdagi o‘quvchilar orasida kitobxonlikni rag‘batlantirishga doir tavsiyalar taqdim etiladi.

Kalit so‘zlar: so‘z yasalishi, morfemik tahlil, so‘z turkumlari, morfema, asos morfema, affiksal morfema, boshlang‘ich ta'lim, leksik ma’no, asosdosh so‘zlar, so‘z yasovchi qo‘shimchalar, shakl yasovchi qo‘shimchalar, interfaol metodlar.

МЕТОДИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ И ЧАСТЕЙ РЕЧИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

Аннотация: В данной статье рассматриваются методика изучения словообразования и частей речи в начальных классах, а также методические рекомендации по их преподаванию. Освещаются вопросы формирования у учащихся навыков морфемного анализа, обучения функциям словообразовательных аффиксов и развития умений самостоятельного определения частей речи. Кроме того, представлены рекомендации по стимулированию читательской активности младших школьников на основе изучения словообразования и частей речи.

Ключевые слова: словообразование, морфемный анализ, части речи, морфема, корневая морфема, аффиксальная морфема, начальное образование, лексическое значение, однокоренные слова, словообразовательные аффиксы, формообразующие аффиксы, интерактивные методы.

METHODOLOGICAL FOUNDATIONS FOR TEACHING WORD FORMATION AND PARTS OF SPEECH IN PRIMARY EDUCATION

Abstract: This article discusses the methodology of teaching word formation and parts of speech in primary school, as well as methodological recommendations for their instruction. It highlights the development of students’ skills in morphemic analysis, teaching the functions of word-forming affixes, and fostering the ability to independently identify parts of speech. In

addition, recommendations are provided for encouraging reading habits among young learners through teaching word formation and parts of speech.

Keywords: word formation, morphemic analysis, parts of speech, morpheme, root morpheme, affixal morpheme, primary education, lexical meaning, cognate words, derivational affixes, inflectional affixes, interactive methods.

KIRISH (INTRODUCTION)

Ona tili – har bir elat, millat va xalqning o‘zligini ifoda etuvchi eng muhim ijtimoiy-madaniy hodisa hisoblanadi. Til nafaqat aloqa vositasi, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari, dunyoqarashi va tafakkur tarzini mujassam etuvchi muhim omildir. Shu bois til ta’limi har qanday jamiyatning ma’naviy va intellektual salohiyatini shakllantirishda ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida milliy tilni asrash, rivojlantirish va yosh avlod ongiga singdirish masalasi dolzarb ilmiy va pedagogik muammo sifatida qaralmoqda.

Boshlang‘ich ta’lim tizimi til o‘rganish jarayonining poydevorini tashkil etadi. Aynan shu bosqichda o‘quvchilarda tilga oid dastlabki bilim, ko‘nikma va malakalar shakllanadi. O‘quvchilarda ona tiliga nisbatan muhabbatni uyg‘otish, ularning lug‘at boyligini kengaytirish, og‘zaki va yozma nutqini rivojlantirish, nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish boshlang‘ich ta’limning ustuvor vazifalaridan biridir. Bu jarayonda o‘quvchilarning nafaqat til birliklarini o‘zlashtirishi, balki ularni amaliy nutq faoliyatida to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay olishi ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘rgatish alohida o‘rin tutadi. So‘z yasalishi orqali o‘quvchilar tilning ichki tuzilishini, yangi so‘zlar hosil bo‘lish qonuniyatlarini anglaydi, bu esa ularning lug‘at boyligini tizimli ravishda oshirishga xizmat qiladi. So‘z turkumlarini o‘rganish esa til birliklarini grammatik jihatdan to‘g‘ri tasniflash, gap tuzish va nutqni mantiqiy tashkil etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shunday ekan, mazkur ikki yo‘nalish boshlang‘ich sinf ona tili ta’limining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaraladi.

Zamonaviy pedagogika va lingvodidaktika nuqtayi nazaridan til ta’limida yodlashga asoslangan an’anaviy yondashuvlar o‘z samaradorligini tobora yo‘qotib bormoqda. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘quvchilarning tahliliy fikrlashi, mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati, mustaqil izlanish va kreativ yondashuvlarini rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilanmoqda. An’anaviy metodlar ko‘pincha reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchining faolligini cheklaydi va ularning o‘quv motivatsiyasini pasaytiradi. Natijada bilimlar yuzaki o‘zlashtiriladi va amaliy nutq faoliyatida yetarlicha qo‘llanilmaydi.

Shu nuqtayi nazardan, so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘qitishda interfaol, innovatsion hamda ko‘rgazmali metodlardan foydalanish zarurati yuzaga keladi. Xususan, didaktik o‘yinlar, muammoli vaziyatlar yaratish, klaster, aqliy hujum, konseptual xaritalar, rolli o‘yinlar kabi metodlar o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirokchi sifatida jalb etadi hamda bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirishga xizmat qiladi. Bunday yondashuvlar orqali o‘quvchilarda nafaqat nazariy bilimlar, balki amaliy nutqiy kompetensiyalar ham shakllanadi.

Shuningdek, boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘qitish jarayonida yosh xususiyatlarini inobatga olish, psixolingvistik omillarni hisobga olish, o‘quv materiallarini bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish muhim metodik talab hisoblanadi. Bu esa o‘quvchilarning bilimni ongli ravishda o‘zlashtirishiga, mustahkam bilim bazasini shakllantirishga hamda keyingi bosqichlardagi til ta’limi uchun zarur zamin yaratishga imkon beradi.

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘rganishning metodik asoslari, ularni samarali o‘qitish yo‘llari hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish masalalari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Tilning asosiy belgisi so‘zlardan iborat bo‘lib, ular turli shakl va ma’nolarda qo‘llaniladi. So‘zlarning yasalishiga ko‘ra ular tub va yasama so‘zlarga bo‘linadi. Bu tasnif tilshunoslikda so‘z yasalishini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. So‘zning yasovchi qismlarga ega bo‘lmagan qismi tub so‘z deyiladi: gul, inson, meva, nozik, tez, kitob, bola, tog‘, oq, yoz kabi so‘zlar tub so‘zlarga misol bo‘ladi. Ular o‘z ma’nosini o‘zgartirmasdan mustaqil qo‘llanadi va yangi so‘zlar yasash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Masalan, gul so‘zidan gulchi, guldon, gulli, gulsiz, gulzor, gulla; ish so‘zidan ishchi, ishchan, ishli, ishsiz, ishla kabi yasama so‘zlar hosil bo‘ladi. Sodda yasama so‘zlar tarkibida bitta yasaluvchi asos va bir yoki birdan ortiq yasovchi qo‘shimchalardan tuziladi. Masalan, ter+im, to‘qi+ma+chilik, suv+siz+lik. Yasama so‘z hosil bo‘lishida asosan yasovchi qo‘shimchalar shtirok etadi. Bu qo‘shimchalar so‘zga yangi leksik ma’no beradi yoki so‘z turkumini o‘zgartiradi.Tarkibli yasama so‘zlarda ikki yoki undan ortiq mustaqil lug‘aviy ma’noga ega bo‘lgan yasalishi asos ishtirok etadi. Masalan, tosh+ko‘mir, jigar+rang, erta+pishar. Bunday yasama so‘zlar ikki yoki undan ortiq ma’noli qism ishtirokida hosil bo‘lsa ham, yaxlitligicha bitta lug‘aviy mano ifodalashga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘rgatish masalasi tilshunoslik va lingvodidaktika fanlarining kesishgan nuqtasida joylashgan bo‘lib, u nazariy va amaliy jihatdan kompleks yondashuvni talab etadi. So‘z yasalishi tilning leksik tizimini boyituvchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida qaraladi. U orqali yangi leksik birliklar hosil qilinadi va mavjud so‘zlarning semantik doirasi kengayadi. Shu bois, o‘quvchilarga so‘z yasalish usullarini o‘rgatish ularning lug‘at boyligini oshirish bilan birga, til tizimining ichki qonuniyatlarini anglashiga xizmat qiladi.

So‘z turkumlari esa til birliklarining grammatik tasnifini ifodalaydi. Ularni o‘rganish orqali o‘quvchilar so‘zlarning grammatik xususiyatlarini, gapdagi vazifasini va o‘zaro munosabatlarini tushunib yetadi. Bu esa o‘z navbatida, nutqning grammatik jihatdan to‘g‘ri va mantiqiy bo‘lishini ta’minlaydi. Tilshunoslikda so‘z turkumlarini o‘rganish morfologiya doirasida olib boriladi va u sintaksis bilan uzviy bog‘liq holda rivojlanadi.

Lingvodidaktik nuqtayi nazardan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘rgatishda ularning yosh va psixologik xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. Kichik yoshdagi o‘quvchilar ko‘proq konkret tasavvur asosida fikrlaydi, shu sababli o‘qitishda ko‘rgazmalilik, o‘yin elementlari va amaliy mashqlar ustuvor bo‘lishi lozim. Shu bilan birga, bilimlarni bosqichma-bosqich murakkablashtirib borish, oddiydan murakkabga tamoyiliga amal qilish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (METHODS)

Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘rgatishning metodik asoslarini aniqlash hamda ularning samaradorligini baholash maqsadida kompleks yondashuvdan foydalanildi. Tadqiqot jarayoni nazariy va amaliy bosqichlarni o‘z ichiga olib, lingvistik hamda pedagogik metodlarning integratsiyasiga asoslandi.

Ilmiy ishning nazariy asosini tilshunoslik, xususan, morfologiya va so‘z yasalishi nazariyasiga oid ilmiy qarashlar, shuningdek, zamonaviy pedagogika va lingvodidaktika yo‘nalishidagi ilmiy ishlanmalar tashkil etadi. Ushbu bosqichda ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish,

qiyosiy o‘rganish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Bu orqali boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘qitishning mavjud yondashuvlari, ularning afzallik va kamchiliklari aniqlashtirildi.

Tadqiqotning empirik qismi tajriba-sinov ishlari orqali amalga oshirildi. Tajriba ishlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida tashkil etilib, ular ikki guruhga — nazorat va tajriba guruhlariga ajratildi. Nazorat guruhida an’anaviy o‘qitish metodlari asosida darslar olib borilgan bo‘lsa, tajriba guruhida interfaol va innovatsion metodlar asosida tashkil etilgan darslar qo‘llanildi. Xususan, didaktik o‘yinlar, klaster usuli, aqliy hujum, muammoli vaziyatlar yaratish kabi metodlar orqali o‘quvchilarning bilim darajasi va nutqiy faolligi oshirilishi maqsad qilindi.

Ilmiy faoliyatda metodlardan foydalanildi: pedagogik kuzatish metodi – dars jarayonida o‘quvchilarning faolligi, ishtiroki va o‘zlashtirish darajasini aniqlash uchun qo‘llanildi; tajriba-sinov metodi – interfaol metodlarning samaradorligini aniqlash maqsadida qo‘llanildi; suhbat va so‘rovnoma metodi – o‘quvchilarning fan bo‘yicha qiziqishi va munosabatini o‘rganish uchun ishlatildi; test sinovlari – o‘quvchilarning bilim darajasini aniqlash va natijalarni taqqoslash uchun qo‘llanildi;

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta’minlash maqsadida tajriba ishlari ma’lum vaqt davomida tizimli ravishda olib borildi va olingan ma’lumotlar o‘zaro qiyosiy tahlil qilindi. Natijalar asosida interfaol metodlardan foydalanish o‘quvchilarning so‘z yasalishi va so‘z turkumlari bo‘yicha bilimlarini chuqurlashtirish, nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o‘quv motivatsiyasini oshirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi aniqlandi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi boshlang‘ich sinflarda ona tili ta’limini takomillashtirishga qaratilgan bo‘lib, u nazariy va amaliy yondashuvlarning uyg‘unligini ta’minlaydi.

MUHOKAMA (DISCUSSION)

Boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘rganish metodikasi o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish darajasi va tilni o‘zlashtirish bosqichlariga mos holda bosqichma-bosqich tashkil etilishi bilan xarakterlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, so‘z turkumlarini izchil va tizimli o‘rgatish o‘quvchilarning grammatik tafakkurini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Amaldagi o‘quv dasturlariga muvofiq, so‘z turkumlarini o‘rganish boshlang‘ich sinflarda quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: 1-sinfda o‘quvchilar shaxs va narsa nomini bildirgan so‘zlar bilan tanishib, “kim?” va “nima?” so‘roqlari asosida otning dastlabki tushunchasini egallaydi. Bu bosqichda bilimlar ko‘proq amaliy xarakterga ega bo‘lib, o‘quvchilar konkret predmetlar orqali tushuncha hosil qiladi. 2-sinfda esa belgini bildirgan so‘zlar o‘rganilib, “qanday?” so‘rog‘i orqali sifatga oid boshlang‘ich bilimlar shakllantiriladi. 3-sinfda “so‘z turkumi” tushunchasi umumlashtirilib, ot, sifat, son va fe’l kabi asosiy grammatik kategoriyalar bilan tanishtiriladi hamda birlik-ko‘plik shakllarini o‘zlashtirishga e’tibor qaratiladi. 4-sinfda esa bilimlar yanada chuqurlashtirilib, so‘z turkumlarining morfologik-sintaktik xususiyatlari, jumladan, kelishiklar, egalik qo‘shimchalari, olmoshlar hamda fe’l zamonlari tizimli ravishda o‘rgatiladi. Ot so‘z turkumini o‘qitish metodikasi alohida e’tiborga loyiqdir, chunki u mustaqil so‘z turkumlari ichida eng ko‘p qo‘llaniladigan va nutqning asosiy tayanch birliklaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, 1–2-sinflarda otning nimani bildirishi va unga xos so‘roqlarni o‘rgatish orqali o‘quvchilarda dastlabki semantik tasavvurlar shakllanadi. 3-sinfda otga ilmiy atama berilib, uning birlik va ko‘plik shakllari o‘rganiladi, bu esa grammatik kategoriyalarni anglashga zamin yaratadi. 4-sinfda esa otning egalik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi va kelishiklar orqali turlanishi o‘rgatiladi, natijada o‘quvchilarning nutqi grammatik jihatdan aniq va mantiqli

shakllana boshlaydi. Amaliy mashqlarni qo‘llash otni o‘rgatishda muhim metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Masalan, she’riy matn asosida otlarni aniqlash topshirig‘i o‘quvchilarning tahliliy fikrlashini rivojlantiradi. “Rubob chaldi Ravshanjon, Ra’no tushdi o‘yinga…” kabi misollarda o‘quvchilar “rubob”, “Ravshanjon”, “Ra’no”, “o‘yin”, “raqslar” kabi otlarni so‘roqlar yordamida ajratib olish orqali nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlaydi.

Sifat so‘z turkumini o‘qitishda ham bosqichlilik tamoyili muhim ahamiyat kasb etadi. 1–2-sinflarda “shaxs va narsaning belgisini bildirgan so‘zlar” mavzusi asosida o‘quvchilarda sifatning dastlabki tushunchasi shakllantiriladi. O‘qituvchining “rangi qanday?”, “mazasi qanday?”, “hajmi qanday?” kabi savollari orqali o‘quvchilar sifatlarni amaliy ravishda ajratishni o‘rganadi. 3–4-sinflarda esa sifat tushunchasi ilmiy asosda kengaytirilib, uning leksik-grammatik xususiyatlari o‘zlashtiriladi. “Tiniq osmon”, “baland tog‘”, “qorli tog‘” kabi birikmalar asosida olib borilgan mashqlar o‘quvchilarning tasviriy tafakkurini rivojlantirish bilan birga, nutqning ifodaliligini oshiradi.

Fe’l so‘z turkumini o‘qitish jarayoni esa o‘quvchilarning harakat va holatni ifodalash ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. 1-sinfda fe’llar harakatni bildirgan so‘zlar sifatida o‘rgatiladi va “nima qilyapti?” kabi savollar asosida tushuntiriladi. Bu bosqichda fe’lning leksik ma’nosi ustuvor ahamiyatga ega bo‘ladi. 4-sinfda esa fe’llarning grammatik kategoriyalari, xususan, zamon va shaxs-son qo‘shimchalari bilan tuslanishi o‘rgatiladi. “Kuzda mevalar nima qiladi? – pishadi”, “daraxt barglari nima qiladi? – sarg‘ayadi” kabi mashqlar o‘quvchilarning nutqiy faoliyatini rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

Son va olmosh so‘z turkumlarini o‘qitish metodikasi: Son so‘z turkumini o‘qitishda o‘quvchilar miqdor va tartibni bildiruvchi so‘zlarni farqlashni, sonlarning ot bilan bog‘lanishini va imlo qoidalarini o‘rganadilar.

Olmosh so‘z turkumini o‘qitishda 4-sinfda kishilik olmoshlari (men, sen, u, biz, siz, ular) haqidagi dastlabki umumiy tushuncha beriladi. Ular kim? so‘rog‘iga javob bo‘lishi, so‘z turkumi ekanligi, 3 ta shaxsni birlik va ko‘plikda ifodalashi, kelishiklar bilan turlanishi haqida bilimlar beriladi.

Mashq. Matn asosida olmoshlarni o‘rganish:

Men "Jimjiloq" hikoyasini o‘qidim. **Sen qaysi** hikoyani o‘qiding? **U** "Nihollarning nolasi" hikoyasini o‘qidi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, so‘z turkumlarini o‘qitishda faqat nazariy tushuntirishlar bilan cheklanib qolish yetarli emas. Aksincha, amaliy mashqlar, interfaol metodlar va o‘quvchilarning mustaqil fikrlashiga yo‘naltirilgan topshiriqlar orqali bilimlarni mustahkamlash yuqori samaradorlikni ta’minlaydi. Ayniqsa, o‘yin elementlari va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning qiziqishini oshirib, ularning dars jarayonidagi faolligini kuchaytiradi. Shunday qilib, boshlang‘ich sinflarda so‘z turkumlarini o‘rgatish metodikasi izchillik, tizimlilik va amaliy yo‘naltirilganlik tamoyillariga asoslanishi lozim. Bu esa o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirish, grammatik bilimlarini mustahkamlash hamda ularni mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA(CONCLUSION)

Boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘rganish ona tili ta’limining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu jarayon o‘quvchilarning nutqini rivojlantirish, lug‘at boyligini oshirish hamda grammatik tafakkurini shakllantirishga xizmat qiladi. Metodik jihatdan

mazkur mavzularni o‘qitishda izchillik, soddalik va amaliy yo‘naltirilganlik asosiy tamoyillar sifatida qaraladi. So‘z yasalishini o‘rgatish orqali o‘quvchilar so‘zning tarkibiy qismlarini (asos va qo‘shimchalarni) anglaydi, yangi so‘zlar hosil qilish ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. So‘z turkumlarini o‘rganish esa ularning so‘zlarni ma’no va grammatik belgilariga ko‘ra guruhlash, to‘g‘ri qo‘llash hamda nutqda o‘rinli ishlatish malakasini rivojlantiradi. Shu bilan birga, dars jarayonida interfaol metodlar, didaktik o‘yinlar, ko‘rgazmali vositalar va hayotiy misollardan foydalanish o‘quvchilarning qiziqishini oshiradi va bilimlarni mustahkamlaydi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘qitishning metodik asoslari o‘quvchilarda mustahkam lingvistik bilimlar, to‘g‘ri va ravon nutq, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘rganish ona tili ta’limining nazariy hamda amaliy jihatdan muhim bo‘g‘ini sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu yo‘nalish o‘quvchilarning nafaqat lingvistik bilimlarini boyitadi, balki ularning nutqiy kompetensiyasini, tafakkur faoliyatini hamda tilga bo‘lgan ongli munosabatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so‘z yasalishi jarayonini o‘zlashtirish orqali o‘quvchilar tilning ichki qonuniyatlarini anglay boshlaydi, so‘zning tuzilishi va ma’no hosil qilish mexanizmlarini tushunadi. Bu esa ularning mustaqil ravishda yangi so‘zlar yasash, mavjud so‘zlarning ma’nosini chuqurroq tahlil qilish hamda nutqda ijodiy yondashuvni qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi.

So‘z turkumlarini o‘rganish esa o‘quvchilarda grammatik kategoriyalarni ongli ravishda idrok etish, so‘zlarni ma’no va shakliy belgilariga ko‘ra tasniflash, ularni nutqda to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantiradi. Bu jarayon til birliklarining o‘zaro munosabatini anglash, gap tuzish malakasini rivojlantirish hamda mantiqiy fikrlashni mustahkamlashga xizmat qiladi. Natijada o‘quvchilar nutqi ravon, aniqligi va ifodaliligi bilan ajralib turadigan darajaga yetadi.

Metodik nuqtayi nazardan, mazkur mavzularni o‘qitishda izchillik, tizimlilik, soddadan murakkabga tamoyili, shuningdek, yosh xususiyatlarini inobatga olish muhim hisoblanadi. Dars jarayonida interfaol metodlardan, didaktik o‘yinlardan, muammoli vaziyatlardan, ko‘rgazmali vositalardan va hayotiy misollardan keng foydalanish o‘quvchilarning bilishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni faol ishtirok etishga undaydi hamda o‘zlashtirilgan bilimlarni amaliyotda qo‘llashga yo‘naltiradi. Shu bilan birga, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash o‘qitish samaradorligini oshirib, individual yondashuvni ta’minlashga imkon beradi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinflarda so‘z yasalishi va so‘z turkumlarini o‘qitishning puxta metodik asosda tashkil etilishi o‘quvchilarda mustahkam lingvistik bilimlar tizimini shakllantiradi, ularning nutq madaniyatini yuksaltiradi hamda mustaqil va ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa kelgusida tilni chuqur o‘rganish, boshqa fanlarni o‘zlashtirish va samarali kommunikatsiya olib borish uchun zarur bo‘lgan tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR/ REFERENCES

1.Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. –T.2022.

2.Shodiyev F.T. Ona tili. Samarqand, 2020.

3.Abdiyev M. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. –Samarqand. 2022.

4.Qosimova K. va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. –T. 2020

5. Qosimova K, Matjonov S, G‘ulomova X, Yo‘ldosheva Sh, Sariyev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent.2009.

6. L.Ernazarova, M.Mirsanova. Ona tili-o‘qish savodxonligi va uni o‘qitish metodikasi. Elektron darslik. Samarqand. 2024.

7. S.Matchonov, H.Bakiyeva, X.Gulyamova, Sh.Yo‘ldoshova. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. –Toshkent.2021.

8. Sh.M.Istamova. Boshlang‘ich talimda ona tilini o‘qitish texnologiyalari. –Buxoro.: “Fan va ta’lim” nashriyoti. 2022.

9. Shodiyev F. Ona tili. – Samarqand. SamDU nashri. 2019.

10.Sh.K.Shayakubov,R.X.Ayupov.“Interfaol ta’lim usullari”.–Toshkent.:“Tafakkur bo‘stoni”.2012.

11. Qosimova D. “Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi”. –Toshkent.: Ilm-Ziyo. 2020.

12.O.M.Jaborova.,Z.A.Umarova.,L.G.Babaxodjayeva.“Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi, innovatsiya va integratsiyasi”. –T.: “Malik print co”. 2021.

13. O.Roziqulov., M.Mahmudov., B.Adizov., A.Hamroyev.”Ona tili didaktikasi”.

–T.: “Yangi asr avlodi”.2005.

14. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili darsliklari” – Toshkent.: Sharq. 2023.